



**O‘ZBEKISTONNING XORIJIY DAVLATLAR BILAN MADANIY
ALOQALARIDA KINO SAN’ATINING O‘RNI (XX ASR
OXIRI –XX ASR BOSHLARIDA)**

Ergasheva Marjona Xidirovna

Qarshi axboot texnologiyalar va menejmenti

universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushidan so‘ng madaniy hayotning bir qismi bo‘lgan kino san’ati sohasida O‘zbekistonning Afg‘oniston, Hindiston, Vyetnam kabi davlatlar bilan aloqalari, xalqaro miqyosda tashkil etilgan kinofestivallar hamda ushbu festivallarda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi davlatlari o‘z kinofilmlari bilan qatnashishi, o‘zaro madaniy aloqalardagi rivojlanish ko‘rsatib berilgan.

Shuningdek, mustaqillik yillarida O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan xalqaro kinofestival qayta “Ipak yo‘li durdonasi” nomi ostida o‘tkaziladigan bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: Ўзбекистон, кино санъати, «Қасам», “Алишер Навоий”, “Тоҳир ва Зухра”, “Фарғона қизи”, “Азамат”, “Фарҳод чироқлари”, “Али боб ва қирқ қароқчи”, кинематограф, Осиё, Африка, Лотин Америкаси, Вьетнам, “Тошкент руҳи”, “Ипак йўли дурдонаси”, халқаро кинофестиваль

Madaniy hamkorlik xalqaro munosabatlar tizimining eng muhim tarkibiy qismlardan biri hisoblanib, bu davlatlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, tenghuquqlilik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shiddat bilan o‘zgarib borayogan bugungi jamiyatda turli



mintaqalarda yuzaga kelayotgan qarama-qarshilik, ziddiyatlarni bartaraf etishda madaniy aloqalar sezilari ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro munosabatlar tizimida madaniy hamkorlik davlatlar va millatlar o'rtasida o'zaro fikr almashish, diniy bag'rikenglik muhitini yaratish, dunyo xalqlari madaniyatini qorishuvida jahon tamaddunining taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi. Xalqaro madaniy aloqalar tarixida bugungi O'zbekiston zamini jahon sivilizatsiyalari tutashgan manzil, tinchlik, do'stlik, va madaniyat poytaxti vazifasini o'tab, bu eng avvalo, insoniyat xavfsizligini saqlash, o'zaro fikr almashish, yangi g'oya va kashfiyotlarning vujudga kelishiga, diniy bag'rikenglik muhitini yaratishga, dunyo xalqlari madaniyatini birlashtirib jahon tamaddunining barqaror taraqqiyotini ta'minlashga olib keladi.

Ma'lumki, o'zbek kino san'ati XX asrning 20 yillarida vujudga kelgan. Dastlabki kinofilmlar 1908 yildan Toshkent, Samarqand, Qo'qon va boshqa shaharlarda namoyish etilgan. Kinooperator Xudoyberdi Devonov tomonidan suratga olingan hujjatli film bilan boshlangan ushbu san'at turi 1931 yilda N.G'aniyevning «Qasam» nomli birinchi badiiy ovozli filmi orqali o'zbek milliy kino san'atiga asos soldi [6].

Kino san'ati madaniy aloqalar tizimida yetakchi omil sifatida xorijiy mamlakatlarning ijtimoiy va siyosiy hayot jabhalariga o'z ta'sirini o'tkazib bordi. Shu sababli xalqni ma'rifatli qilishda kinematografiyaning alohida roli qayd etiladi. O'zbekistonda kino san'ati sohasidagi madaniy aloqalar xalqaro kinofestivallarda, kinoasarlal almashinuvi va kinoaktyorlar hamkorligi kabi yo'nalishlarda olib borilgan.

O'zbekiston SSRda 1950 yilda birinchi marotaba kinofilmlar festivali tashkil etilib, unda 12 ta film hamda Toshkent badiiy filmlar studiyasining "Alisher Navoiy", "Tohir va Zuhra", "Farg'ona qizi", "Azamat", "Farhod chiroqlari", "To'rt darvozali shahar" kabi badiiy va hujjatli filmlar namoyish qilindi [1].

O'zbek kino ustalari afg'onistonlik hamkasblari bilan birgalikda 1950 yilda "Hindiqush orqali yo'l", "Hirot-Qandahor", "Hirot shahri" va boshqa hujjatli filmlarni tayyorladilar [7].



Ayni vaqtda 41 mamlakat ekranlarida “O‘zbekfilm” tomonidan suratga olingan kino filmlar namoyish etildi. 30 dan ortiq mamlakatning tomoshabinlari o‘zbek milliy san’atiga qoyil qolib, aktyorlarimizni olqishlashdi.

Masalan Hindistonda chiqadigan “Hindiston” gazetasi “O‘zbekiston aktyorlarining Dehlida ko‘rsatgan tomoshasi haqida mana bunday deb yozdi: “Konsert o‘zining ajoyib maqomi, kishini hayratda qoldiradigan jozibadorligi, nazokati va yoqimli musiqasi bilan hammani maftun etdi. Poytaxt hech qachon sana’ning bunday oliy namunasini ko‘rmagan edi”. Hindistonning o‘zida o‘zbekistonlik san’atkorlar bergan 25 konsertni 130 mingdan ortiq tomoshabin ko‘rdi [7].

Shuningdek, O‘zbekistonning Hindiston bilan aloqalari samarali natijalarni berdi. 1980 yilda o‘zbek kinorejissori Latif Fayziyevning hind hamkasblari bilan birga “Ali bobo va qirq qaroqchi” filmining yaratilishi kino san’atida katta voqea bo‘ldi. Bu film o‘zbek va hind san’atkorlari ijodiy hamkorligining yorqin namunasi edi. 1984 yilda Latif Fayziyev hind kino ustalari bilan hamkorlikni davom ettirib, “Sevgi afsonasi” filmini yaratdi. Filmni yaratishda Nabi Rahimov, Zikri Muhammadjonov, Gulchehra Jamilova, Isamat Ergashev, Zulfiya Mo‘minovadan iborat o‘zbek san’atkorlari, shuningdek, Sanni Deol, Punam Sxilop, Zinnat Oman, Shashi Kapur singari taniqli hind aktyorlari qatnashdilar [2].

Sovet davrida kino san’ati xalqni o‘sib kelayotgan yosh avlodni umuminsoniy g‘oyalar ruhida tarbiyalashda muhim o‘rin tutgan. Jumladan, 1961 yilda suratga olingan Sh.Rashidov va V.Vitkovich ssenariysiga asosan (Mirzo Bedilning “Komde va Mudan” poemasi asosida) “Ikki dil dostoni” filmi Hindiston va O‘zbekistonda suratga olindi. Film rejissori K.Yormatov bu asarni “Hindiston bilan mushtarak taqdirlarimiz haqidagi asar”, - deya e’tirof etgan edi [6].

Kino san’ati rivojida o‘zbek kino san’ati ham faol ishtirok etib, 1961 yilda Moskvada o‘tkazilgan II xalqaro kinofestivalida O‘zbekiston va Vyetnam kinoijodkorlari tomonidan yaratilgan “Vyetnam- mening vatanim” filmi tomoshabinlar hukmiga havola etildi. Festival ishtirokchisi Vyetnam delegatsiyasi boshlig‘i Xo Van Layning fikricha, “Vyetnamda kino



san'atini yanada taraqqiy ettirish uchun davlatlar o'zlarining samimiy, do'stona yordamlarini ayamotirlar. O'zbekiston kinematograflari bilan hamkorlikda yaratilgan hujjatli film do'stligimizning yorqin namunasidir. Bunday tashabbusni yana davom ettiramiz" [4]

Shuningdek, Vyetnamda o'zbek kinomatograflarining "Qirq yil va bir kun", "Lyuba, Roza, Abdulla", "Mening dugonalarim" kabi hujjatli filmlar ham namoyish etildi [6].

1968 yildan boshlab 1988 yilgacha jami 10 marta Toshkent shahrida uch qit'a – Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining xalqaro kinofestivali o'tkazildi. Jumladan, 1968 yil 21-31 oktabr kunlari Osiyo va Afrika mamlakatlari Toshkent xalqaro kinofestivali ochilib, "Tinchlik, ijtimoiy ravnaq, xalqlar ozodligi va mustaqilligi uchun" shiori ostida bo'lib o'tgan. Bu birinchi festivalga 49 ta mamlakatdan kino aktyorlari va rejisyorlar ishtirok etdi.

1972 yilda Toshkent shahrida Osiyo va Afrika mamlakatlari kinematograflarning II xalqaro kinofestivali tashkil etildi. Unda 60 dan ortiq mamlakat ishtirok etib, ulardan 24 tasi Osiyo mamlakatlari delegatsiyasi tashkil etgan [8].

1974 yili Toshkent shahrida III xalqaro kinofestival o'tkazildi. Kinofestivalda Osiyo mamlakatlaridan 118 nafar kino ijodkorlari ishtirok etgan. "O'zbekfilm" kinostudiyasi ushbu xalqaro kinoanjumanda ikki seriyali "Abu Rayhon Beruniy" filmi bilan qatnashdi [9]

1976 yildan Toshkent xalqaro kinofestivali uch qit'a miqyosda - Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari doirasida tashkil etildi. Toshkent II xalqaro kinofestivalda "Olovli sohil» filmi va O'zbekiston-75", "Go'ri Amir", "Osmonni kaftingda tut", "Toshkent jasorati", "Insonlarga quvonch bag'ishla" hujjatli filmlarini taqdim etishgan. 1982 yili kinofestivalda dunyoning 90 ta mamlakatidan kino san'ati ustalari ishtirok etdilar. Xalqaro kinofestivalda "Toshkent ruhi" deb nom olgan va dunyo san'atkorlarini tinchlik yo'lida birlashtirgan harakat paydo bo'ldi.



Kino sohasidagi bunday aloqalar madaniy jarayonda oʻzga xos katta burilish yasadi. Bu festival Osiyo va Afrika mamlakatlari kino sanʼatlarining eng yaxshi asarlarini namoyish qilish va ragʻbatlantirish, turli mamlakatlar kinematografchilarining oʻzaro hamkorligini kuchaytirish hamda xalqlar oʻrtasidagi doʻstlikni mustahkamlashga xizmat qilish vazifasini bajara oldi [5].

Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari Toshkentda xalqaro kinofestivallarni oʻtkazishda Oʻzbekiston Doʻstlik jamiyatining ishtirok etishi anʼanaga aylangan edi. Mazkur kinofestivalda mukofotlar topshirish marosimi Toshkent kinofestivalining eng tantanali lahzalaridan biridir. Keyingi festivallarda bir qancha filmlar Oʻzbekiston Doʻstlik jamiyatining diplomlari va mukofotlari bilan taqdirlandi. Bular orasida rejissor Vahobning “Nurga eltuvchi yoʻl” filmi, Kuba kino ustalarining “Yangi maktab”, Bangladesh kinematografchilarining “Oʻzgarish” kinokartinalari va boshqalar bor [5].

Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Toshkentni yana mintaqaning madaniy va ilmiy markazi sifatidagi maqomini qayta tiklash ishlari boshlab yuborildi. Xususan, 2021 yil 19 iyunda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Toshkent xalqaro kinofestivalini qayta tiklash va oʻtkazish toʻgʻrisida” qarorni imzoladi [10]. Kinofestival “Ipak yoʻli durdonasi” nomi ostida oʻtkaziladigan boʻldi. Milliy kino sanʼatini yanada rivojlantirish va xalqaro hamjamiyatdagi nufuzini oshirish, ushbu sanʼat turi orqali xalqimizning boy tarixi va betakror madaniyatini dunyoga keng targʻib etish festivalning asosiy maqsadlaridan biri etib belgilandi.

Qarorga muvofiq, Toshkent xalqaro kinofestivali endilikda Oʻzbekiston Kinematografiya agentligi tomonidan 2021 yildan boshlab har yili 28 sentabr— 3 oktabr kunlari oʻtkaziladi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi xalqaro kinofestivali deb nomlangan Toshkent kinofestivali 1968–1997 yillarda may oyi oxiri-iyun oyi boshida davlat kinematografiya qoʻmitasi va kinoarboblar uyushmasi tomonidan tashkil etilgan [1].



Shu yili bo‘lib o‘tgan mazkur kinofestival «Tinchlik, taraqqiyot va ma’rifat» shiori ostida bo‘lib o‘tdi va unga xorijdan jami 355 nafar ishtirokchi, shu jumladan, 55 nafar taniqli kinoyulduzlar taklif etildi.

Festival doirasida mashhur kinomutaxassislar va rejissorlar ishtirokida yosh kinoijodkorlar uchun mahorat darslari, ijodiy uchrashuvlar, kinotreninglar, davra suhbatlari, hududlarda kinoko‘rgazmalar, eng yaxshi milliy va xorijiy filmlar namoyishlari o‘tkazildi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi va keng qamrovli islohotlarning amalga oshirilishi munosabati bilan, respublikamizning tashqi siyosatda xorijiy mamlakatlar bilan madaniy aloqalarni rivojlantirish va takomillashtirib borish yangi pog‘onaga ko‘tarildi. Bu jarayonda O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar o‘rtasida sovet davrida amalga oshirilgan keng qamrovli madaniy aloqalar jarayonida qo‘lga kiritilgan ijobiy tajribalar ham o‘z o‘rni va ahamiyatiga ega.

ФОЙДАЛАНИЛГАН МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Валиева Д. Дўстлик робиталари // Ўзбекистон маданияти. 1973 йил 11 сентябрь. Б.2.
2. Зияев Х. Ўзбекистоннинг хорижий мамлакатлар билан иқтисодий ва маданий алоқалар. – Тошкент: Ўздавнашр, 1986. –Б. 50.
3. Йўлдошева М. Ўзбек ҳужжатли киноси чет элларда // Қизил Ўзбекистон. 1961 йил 28 август
4. “Тинчлик ва дўстлик фестивали” // Ўзбекистон маданияти. 1961 йил 29 август.- Б. 4
5. Тўхтажова И. Ўзбекистон жамоатчилигининг чет эллар билан алоқалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – Б.15
6. Эрназаров Ф.Х. Ўзбекистоннинг Осиё давлатлари билан маданий алоқалари. –Т.: Иқтисодиёт, 2018. – Б.94.



7. Ўзбекистон агитатор, 1967 йил 10-11-12. Б.92,93.
8. Ўзбекистон Республикаси Миллий архиви, Р-2564 фонд, 1-руйхат, 1687-йиғма жилд, 1-варақ
9. ЎЗРМДА, Р-2564 фонд, 1-руйхат, 2094-йиғмажилд, 18-варақ
10. “Тошкент халқаро кинофестивалини қайта тиклаш ва ўтказиш тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президенти Қарори. “Янги Ўзбекистон”, 2021. 22-июнь. 125-сон.